

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№6

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 304 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni shakllantirishda xitoy va rossiya investitsiyalarining qiyosiy tahlili.....	20
Malikov Numonjon Kamalovich	
Raqamli texnologiyalarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri	26
Sherzod Rajabov, Istora Abdusalomova	
Reducing inequality through human capital development: a comparative analysis of policies in the european union and uzbekistan	30
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
Hududiy raqamli infratuzilmaning xizmat ko'rsatish sektoriga ta'siri: samarqand viloyati misolida	39
Musinov Dilshod Sultanovich	
Ways to improve quality in hotels through digital technologies	44
N.A. Rakhmonova	
Проблемы и пути внедрения механизма налогового стимулирования центров инновационного роста нового узбекистана.....	48
Умаров Б. С.	
Влияние протекционистской политики на инвестиционные стратегии промышленных предприятий.....	55
Ёдгоров Сардорбек Самадович	
Fiskal siyosat tahlili: aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish.....	61
Isroilov Boxodir Ibragimovich, Navruzova Farog'at Abdihamid qizi	
Problems in entrepreneurial potential development: a comprehensive analysis of contemporary barriers and challenges	67
Baxtiyor Xabibullayev Abdulvoxid o'g'li	
Tijorat banklarida aholi omonatlarining jozibadorligini oshirishning metodologik asoslari va amaliy yo'nalishlari	73
Xakimov Zoxid Norbo'tayevich	
To'lov aylanmasining mohiyatini aniqlashda to'lov va to'lov oqimlarining roli.....	78
I.F.Sayfiddinov	
Moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlovchi samarali soliq siyosati.....	83
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
Youth, digital finance, and the gig economy in uzbekistan	86
Akmal Boymurodov	
Aktsiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruvda qaror qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari	91
Xabibullaeva Shirinxon Tohir qizi	
В условиях трансформации обеспечение развитие образования и нуки в сфере подготовки управленческих кадров	98
Суюнов Дилмурод Холмурадович	
Ипотечное кредитование как инструмент социальной политики в узбекистане	104
Базарова Нигора Равшановна	
Kichik biznes subyektlari tomonidan hudud aholisi bandligini ta'minlashning ijtimoiy va iqtisodiy natijalari.....	110
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
Kichik korxonalar istiqbolli hududlarda sanoat ishlab chiqarish holati dinamikasi.....	114
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
Banklarning aktivlarini daromadliligini oshirish yo'llari	118
Elbusinova Umida Khamidullaevna	



Ekologik omillar o'zgarishining dehqon xo'jaliklari yalpi hosiliga ta'siri	123
Otamurodova Dildora Abdukrimovna	
O'zbekiston tijorat banklarining yashil iqtisodiyotdagi o'rni	128
Eshev Furqat A'zamovich, Ibragimova Feruza Axtamovna, Jumanazarova Malika Baxtiyorovna, Raxmatova Mohina Dilmurod qizi	
Использование интеллектуальных технологий в процессе обслуживания клиентов банка	132
Хашимова Дилёра Пахритдиновна	
Innovatsion faoliyatning moliyaviy rag'batlantirish va boshqaruv samaradorligini belgilovchi omil va jihatlari.....	138
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Import tovarlari bo'yicha aksiz solig'ini undirishning nazariy asoslari.....	143
Abdurasulov Murodjon Bahrom o'g'li	
Роль цифровых валют центральных банков в модернизации платёжной инфраструктуры: мировой опыт и перспективы Узбекистана	150
Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.	
Tijorat banklarida chakana to'lov tizimlarini nazariy asosi.....	155
Sultonov Davronjon Rustam o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirishda strategik menejmentning roli	161
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston.....	170
Islomova Dilrabo Salomovna	
Iqtisodiy masalalarni matritsalar nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish.....	175
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi	
Pul bozori barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarida likvidlikni boshqarish samaradorligi	188
Sattorova Nasiba G'aniyoz qizi	
The role of digitalization of healthcare in the implementation of the safe city project	192
Akbarjon Iminov	
Аутоиммунные поражения центральной нервной системы, возникающие после стрептококковой инфекции	198
Умарова Саодат Сулаймоновна, Нормакматов Бахтиёр Ботиралиевич	
Iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investiyalar tahlili.....	204
Namozov Olim Botirovich	
Creating a favorable climate for investment in agriculture	209
U.I.Djumaniyazov, B.J.Mirzaev	
Davlat ishtirokidagi korxonalarni korporativ boshqaruvni xalqaro standartlari asosida takomillashtirish	214
F.Djalilov	
Davlat tibbiyot tashkilotlarida ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy su'gurt qilish xarajatlarini hisobi.....	222
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
O'zbekistonda bank operatsion xarajatlari buxgalteriya hisobi.....	227
Qurbonova Sitara Vahobjon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari.....	233
Musayev Ozodjon Shavkat o'g'li	
Пути обеспечения стабильного экономического роста в условиях перехода к зелёной экономике, совершенствования государственной экономической политики и повышения эффективности внедрения принципов цикличной экономики.....	237
Худайбергенова Адалат Неъматуллаевна, Убайдуллаев Сирожиддин Жамшидович, Файзиёва Хамида	



Кудратовна, Эшбоев Миржалол Бахромович	
O'zbekiston sanoatining iqtisodiy holatini baholash	241
Mamanazarov Oybek Shomurodovich	
Maktabgacha ta'limda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda matematika va savod asoslarining didaktik yechimlari.....	247
Mingboyeva Guldorxon Maxmudovna	
Soliq tizimida soliq riskini baholash uslubiyoti.....	252
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Budjetni rejalashtirish tizimida jismoniy shaxslar daromadlari bo'yicha prognozlashni takomillashtirishning metodologik asoslari	260
Babaev Shavkat Bayramovich	
Понятие и сущность денежного потока в системе финансового управления.....	267
Машарипова Шахло Адамбаевна	
Yashil mehmonxonalarda strategik tahlil metodologiyasi	274
Rasulova Nigora Yusupovna	
Цифровая трансформация: новые возможности и современные тенденции в управлении бизнесом и инвестициями.....	279
Баратова Динора Алишеровна	
Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishning sifati va samaradorligini baholash.....	283
Ikromov Akbar Farxod o'g'li	
Модель внедрения open banking в Узбекистане: предложение на основе международного опыта и локальных особенностей.....	288
Камалов Шухрат Камалович, Аскарова Дилором Хожимуратовна, Баходиров Жасурбек Олёрбек ўғли, Маликов Шохрух Шокирович, Тенгелова Фарангиз Мажид кизи	
O'zbekistonda islom moliyasini joriy qilishning yo'llari	295
Ashurboyev Farrux Alisher o'g'li , Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
AQSH tajribasiga ko'ra eksportni iqtisodiy o'sishga tasiri	299
D.E.Qarshiev	



AQSH TAJRIBASIGA KO'RA EKSPORTNI IQTISODIY O'SISHGA TASIRI

**D.E. Qarshiev**

ISFT instituti PhD dotsenti

daniyarkarshiev@gmail.com

Orcid kodi:0009-0003-0473-4693

Annotatsiya: Ushbu maqolada eksport faoliyatining iqtisodiy o'sishga ta'siri, uni takomillashtirishning strategik bosqichlari, sohaviy va geografik diversifikatsiyasi, shuningdek, AQSHning bu boradagi muvaffaqiyatli tajribasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. AQSH tajribasini O'zbekistonga mos keluvchi jihrlaridan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, eksport, tashqi savdo, eksportni moliyalashtirish, eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash, xalqaro transport koridorlari, eksport subsidiyalari, qishloq xo'jaligi sohasi eksporti, yengil sanoat sohasi eksporti, eksport faoliyatida xorij tajribasi.

Abstract: The article scientifically analyzes the impact of export activities on economic growth, strategic stages of its improvement, sectoral and geographic diversification, as well as the successful experience of the United States in this regard. Proposals and recommendations are given on the use of aspects of the US experience that are relevant for Uzbekistan.

Key words: economic growth, export, foreign trade, export financing, export support, international transport corridors, export subsidies, agricultural export, light industry export, foreign experience in export activities.

Аннотация: В статье научно проанализировано влияние экспортной деятельности на экономический рост, стратегические этапы ее совершенствования, отраслевая и географическая диверсификация, а также успешный опыт США в этом отношении. Даны предложения и рекомендации по использованию аспектов опыта США, актуальных для Узбекистана.

Ключевые слова: экономический рост, экспорт, внешняя торговля, экспортное финансирование, поддержка экспорта, международные транспортные коридоры, экспортные субсидии, экспорт сельскохозяйственной продукции, экспорт легкой промышленности, зарубежный опыт экспортной деятельности.

KIRISH

XXI asrda jahon iqtisodiyoti globallashtirish va raqobatning yangi bosqichiga kirib keldi. Bunday sharoitda mamlakatlar o'z milliy iqtisodiyotini barqaror va izchil rivojlantirish uchun tashqi iqtisodiy aloqalarni, xususan, eksport faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishmoqda. Eksport nafaqat milliy ishlab chiqarish salohiyatini namoyon etuvchi mezon, balki mamlakatning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligi, valyuta tushumlari va iqtisodiy barqarorligi uchun muhim omil sifatida qaraladi.

AQSH kabi iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlar uchun eksport faoliyati sanoat tarmoqlarining halqarolashuvi, xizmatlar sohasining raqamli transformatsiyasi va innovatsion mahsulotlar eksportida strategik ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. 2024 yil natijalari shuni ko'rsatadiki, AQSH eksport hajmlari o'sishini saqlab qolgan bo'lsa-da, import hajmining ham jadal oshishi sababli umumiy savdo balansidagi defisit yanada chuqurlashgan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Eksport har qanday milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat turi hisoblanadi. U mamlakatning ishlab chiqarish salohiyatini tashqi bozorlar bilan bog'laydi, valyuta tushumlarini ta'minlaydi va bandlik darajasini oshiradi. Mamlakat iqtisodiy o'sishida eksportning o'rnini o'rganishda zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, amaliy natijalar va davlat siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Klassik iqtisodchilar Adam Smit, David Rikardolar xalqaro mehnat taqsimoti va mutloq nisbiy ustunlik nazariyalari orqali eksportni iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida ko'rishgan.

Neoklassik maktabdagi Solou (1956) va Romer (1986) modellarida eksport orqali investisiyalarning ko'payishi, texnologik taraqqiyot, mehnat unumdorligining oshishi kabi jarayonlar tezlashishini ta'kidlangan.

Milliy mahsulotlar tashqi bozorda raqobatbardosh bo'lishi uchun sifat, narx, logistika va standartlashtirish jarayonlarining samaradorligi talab etiladi. Eksport bu talablarni o'rtaga qo'yadi va iqtisodiyotda sifatli o'sishga turtki beradi. Eksport faoliyatini takomillashtirish va unga tashkiliy moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali ta'sir etish bo'yicha MDH va xorijiy mamlakatlarda ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Ilmiy maqolani yoritish uchun Robert Merton Solow modeli tahlil qilindi.¹ Shunindek A.I. Prishyepa va O.V. Datsiklarni ilmiy maqolasi tahlil qilindi.² Ularning fikricha eksport kreditlari, forfeyting, faktoring va sug'urta vositalari orqali tashqi savdoni qo'llab-quvvatlashning modeli sifatida eksport kredit agentliklarining roli muhim. T.I. Boxan Belarussiya misolida eksportni moliyalashtirishning amaliy jihatlarini tahlil qilgan.³ Uning fikriga ko'ra, eksportoldi kreditlash ya'ni eksportga tayyorgarlik jarayonini moliyalashtirish eksportchilarning tashqi bozorda barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahliliga ko'ra, MDH mamlakatlari tajribasi ko'proq eksport kredit agentliklari, davlat kafolati va eksportga doir sug'urta xizmatlari atrofida shakllangan.

Xorijiy mamlakatlar, ayniqsa AQSH, Yaponiya va Yevropa davlatlarida esa eksport kreditlarini samarali boshqarish uchun moliyaviy mexanizmlarni bozor qonunlariga asoslash tendensiyasi ko'proq namoyon bo'lgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqot davomida mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanildi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Xalqaro savdo markazi (ITC), Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan e'lon qilingan raqamli ma'lumotlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy o'sish va tashqi savdo o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy nazariyada uzoq yillardan beri muhokama qilib kelinmoqda. Ayniqsa, eksportning iqtisodiy o'sishga ta'siri bo'yicha nazariy yondashuvlar jahon iqtisodiyotidagi globalizatsiya jarayonlari, ishlab chiqarishning xalqaro taqsimoti va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarining ortishi fonida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Eksport faoliyati orqali mamlakatlar resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni kengaytirish, texnologik yangilanish va mehnat unumdorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga erishishi mumkin.

Klassik iqtisodiy maktab vakillari Adam Smit va David Rikardo tashqi savdoni iqtisodiy o'sishning asosiy turtkilaridan biri sifatida ko'rgan. Adam Smit o'zining "Millatlar boyligi" asarida (1776) ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti orqali mamlakatlar o'zlariga nisbatan ustun bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali yuqori daromadga erishishini ta'kidlagan.

Robert Solouning (1956) iqtisodiy o'sish modelida eksport to'g'ridan to'g'ri nazarda tutilmagan bo'lsa-da, kapital va texnologiyaning o'sishi iqtisodiy o'sishga olib kelishi ta'kidlangan. Keyingi tahlillarda eksportdan kelgan daromadlar investisiya va texnologiya importi uchun manba bo'lib xizmat qilishi orqali Solou modelining implisit tarkibiy qismi sifatida ko'rilgan.

Neokeynsianlar esa talabni kengaytirishning asosiy manbai sifatida eksportni ko'rsatgan. Ya'ni, eksport mamlakat ichki talabini cheklangan holda qoldirmasdan, tashqi bozorlarga chiqish orqali qo'shimcha talab yaratadi, bu esa ishlab chiqarishni kengaytirishga va ish o'rinlari yaratilishiga olib keladi.

David Rikardo esa "komparativ ustunlik" nazariyasi orqali har bir mamlakat o'zining nisbiy samaradorligi yuqori bo'lgan mahsulotlarga ixtisoslashishi orqali umumiy samaradorlik oshishini nazariy jihatdan isbotlagan.

1 Solow R. Robert M. Solow //1990. – 1990. – С. 268-84.

2 Прищепа А. И., Дацик О. В. Механизмы внешнеторгового финансирования экспортных операций в международной практике ведения торговли //Экономика и управление (Минск). – 2013. – №. 2. – С. 55-60.

3 Бохан Т. И. Развитие внешнеторгового финансирования в условиях кризисных изменений в экономике Республики Беларусь //Актуальные проблемы науки XXI века. – 2012. – №. 1. – С. 101-105.



Bu nazariyaga ko'ra, eksport orqali mamlakatlar nafaqat bozorni kengaytirish, balki resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

"Export-led growth hypothesis" (ELG) - bu nazariyaga ko'ra, eksport iqtisodiy o'sishning asosiy turtkichi hisoblanadi. Ushbu nazariya Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur va Xitoy tajribasiga tayanadi. Mazkur modelga ko'ra eksport orqali:

- Øyangi texnologiyalar kiritiladi;
- ishlab chiqarish miqyosi kengayadi;
- tashqi bozorlarga chiqish ichki ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

Pol Romer va Robert Lukas singari olimlar tomonidan ishlab chiqilgan endogen o'sish nazariyasida innovatsiyalar va texnologik rivojlanish iqtisodiy o'sish manbai sifatida qoraladi. Unga ko'ra, eksport faoliyati yangi bilimlar va texnologiyalarni jalb etish orqali ichki o'sish sur'atini oshiradi.

Institusional iqtisodchilar, jumladan, Duglas Nort, eksportning iqtisodiy o'sishga ta'sirini samarali institusional muhit orqali tahlil qilgan. Agar eksport siyosati huquqiy aniqlik, kontrakt kafolatlari, intellektual mulkni himoya qilish kabi institutlar bilan qo'llab-quvvatlanmasa, eksportdan olinadigan foyda cheklangan bo'ladi.

Geosiyosiy yondashuv (Dependency theory) nazariyasiga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar eksportga bog'liq holda qolib ketadi va o'z iqtisodiyotini to'liq mustaqil rivojlantira olmaydi. Bunday mamlakatlar asosan xom ashyoni eksport qiladi va hech qachon sanoatlashishga erisha olmaydi (Immanuel Vallersteyn, Raul Prebisch).

Ko'plab tadqiqotlarda eksport bilan yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishi o'rtasida korrelyatsiya va kauzal bog'liqlik (Granger causality) o'rganilgan. Janubiy Koreya, Vyetnam, Xitoy misolida eksportning o'sishi YAIM o'sishiga sabab bo'ladigan omil sifatida namoyon bo'lgan.

Faqatgina xom ashyo yoki bitta sektorga tayanilgan eksport iqtisodiy o'sishda uzoq muddatli samara bermaydi. Eksport tarkibining sanoatlashgan, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar tomon siljishi iqtisodiy o'sish sur'atini sezilarli darajada oshiradi (Hausmann & Rodrik, 2003).

Eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish korxonalari, odatda, ichki bozorga ishlovchilarga qaraganda yuqori samaradorlikka ega. Buning asosiy sababi quydagicha izoxlanadi:

- raqobatbardoshlik uchun texnologiya yangilanadi;
- mehnat unumdorligi oshadi;
- sifat nazorati kuchaygan bo'ladi.

Eksportga haddan tashqari suyangan iqtisodiyotlar tashqi shoklarga (masalan, jahon bozoridagi narx o'zgarishlari, sanksiyalar) qattiq ta'sirchan bo'ladi. Misol tariqasida Venesuela, Rossiya kabi xom-ashyo resurslarini eksportiga tayanib qolgan mamlakatlarni keltirishimiz mumkin. Eksport orqali valyuta tushumi ortishi milliy valyutaning qadrini oshiradi va bu ichki ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatbardoshlikni pasaytiradi. Bu fenomen Niderlandiyada tabiiy gaz eksportidan so'ng yuzaga kelgan iqtisodiy oqibatlar bilan bog'langan va "Dutch Disease" deb nomlangan.

Koreya, Singapur, Malayziya singari mamlakatlarda eksport strategiyasi milliy sanoat siyosatlarini bilan uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirilgan. Bu ularga yuqori texnologik mahsulotlarni eksport qilish orqali barqaror o'sishga erishish imkonini berdi.

Eksportning iqtisodiy o'sishga ta'siri borasidagi nazariy yondashuvlar turli maktablar asosida shakllangan bo'lib, umumiy xulosalardan biri shundan iboratki - eksport iqtisodiy o'sishga kuchli turtki bera oladi, agarda:

- u diversifikatsiya qilingan bo'lsa;
- eksport sektori ichki sanoat siyosatlarini bilan uyg'un bo'lsa;
- texnologik yangilanish va innovatsiyalar bilan bog'liq bo'lsa.

Eksportni moliyalashtirish tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sish zamirida bugungi "Zamonaviy" iqtisodiy nazariya yotgan bo'lib bunda tabiiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish hajmining real ko'payib ketishi orqali qisqa muddatli iqtisodiy o'sish ravnaqi emas, balki uzoq muddat davomida iqtisodiy o'sish orqali dunyo bozorida ustunlikni saqlab qolish nazarda tutiladi.

Eksportni moliyalashtirish tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy o'sish fuqarolarning daromadini ko'payishiga va ularning faravonlik indeksining oshishiga olib keladi.

Amerika Qo'shma Shtatlari (AQSH) dunyo iqtisodiyotidagi yetakchi mamlakatlardan biri sifatida tashqi savdo va eksport faoliyatini strategik darajada rivojlantirgan. Uning iqtisodiy o'sishida eksport muhim omil hisoblanadi, bu orqali mamlakatning sanoat salohiyati, innovasion imkoniyatlari va texnologik yetakchiligi xalqaro miqyosda namoyon bo'ladi.

AQSH iqtisodiyoti jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 15-17 foizini tashkil etadi. AQSHda keng ichki bozor, yuqori investitsion faollik, yuqori mahsuldorlik, texnologik ildamlilik kabi omillar hisobiga barqaror o'sish ta'minlanmoqda. 1945 yildan so'nggi davrda AQSH iqtisodiyoti turli bosqichlarni bosib o'tdi bular industrial, post-industrial, raqamli transformatsiya va servis iqtisodiyoti bosqichlaridir.



AQSHda eksportni rag'batlantirish uchun qator davlat institutlari va nodavlat agentliklar faoliyat yuritadi: uExport-Import Bank (EXIM) eksport kreditlari, kafolat va sug'302urta xizmatlari bilan taminlaydi. uU.S. Commercial Service eksportchilarga xalqaro bozorda yo302l-yo302riq va tahlillar taqdim etadi. uOverseas Private Investment Corporation (OPIC) va USAID rivojlanayotgan bozorlar uchun qo302llab-quvvatlash vositalarini taqdim etadi.

Bu institutlar eksport qiluvchi korxonalarni tashqi xatarlardan himoya qiladi va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi.

AQSH eksport tarkibida quyidagi tarmoqlar yetakchilik qiladi:

1. Ishlab chiqarish sanoati: samolyotlar (Boeing), avtomobil qismlari (Ford, GM), tibbiy uskunalar.
2. Xizmatlar sohasi: IT (Google, Microsoft), moliya (Visa, JPMorgan), turizm va ta'lim.
3. Qishloq xo'jaligi: bug'doy, soya, paxta, go'sht.

AQSH tashqi savdo hajmining 48% qismi yetti davlat Kanada, Meksika, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Britaniya va Janubiy Koreya hissasiga to'g'ri keladi. USMCA (Kanada va Meksika bilan) kabi kelishuvlar mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlaydi. Shuningdek, AQSH Yevropa Ittifoqi va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bilan ikki tomonlama savdo munosabatlarini kengaytirgan. Bu geografik diversifikatsiya Amerika mahsulotlariga turli bozorlarda ustuvorlik bermoqda.

Shu bilan birga, AQSH eksport faoliyati qator global xatarlarga duch kelmoqda:

- Proteksionizm, Xitoy va Yevropa davlatlarida himoya choralari qo'llanishi.
- Geosiyosiy ziddiyatlar, sanksiyalar va savdo urushlari
- Ekologik va ESG standartlar, yashil eksport talablari va karbon hajmlari bo'yicha cheklovlar.

Shu bois, AQSH eksport strategiyasida barqarorlik, xavfni boshqarish va diversifikatsiyaga alohida e'tibor berilmoqda.

1-jadval. AQSHda eksport va yalpi ichki mahsuloti ko'rsatkichlari.⁴

Yil	Eksport (mlrd \$)	Nominal GDP (mlrd \$)	Eksport/GDP (%)
2014	2 378,5	17 608,1	≈13,5
2015	2 270,6	18 295,0	≈12,4
2016	2 235,6	18 804,9	≈11,9
2017	2 388,3	19 612,1	≈12,2
2018	2 538,1	20 656,5	≈12,3
2019	2 539,4	21 539,9	≈11,8
2020	2 151,1	21 354,1	≈10,1
2021	2 555,4	23 681,1	≈10,8
2022	3 017,4	26 006,9	≈11,6
2023	3 052,5	27 720,7	≈11,0

2024 yildagi AQSH tashqi savdosi ko'lamida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Jahon bozoridagi geosiyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, pandemiyadan so'nggi tiklanish jarayonlari hamda logistika tarmoqlaridagi o'zgarishlar AQSH eksport-import ko'rsatkichlariga ta'sir etdi.

2024 yilda AQSHning umumiy eksport hajmi \$3.1916 trln.ni tashkil qildi, bu 2023 yilga nisbatan \$119.8 mlrd.ga ko'p. Mahsulotlar eksporti \$1.905 trln.ga yetdi. Xizmatlar eksporti esa \$1.2866 trln.ni tashkil qilib, xizmatlar savdosida \$293.3 mlrd.lik yuqori profisit qayd etildi. Bu o'sish sabablari orasida neft va qimmatbaho metallar narxlarining o'sishi, texnologik mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi va xizmatlar sohasidagi raqamli transformatsiyani ko'rsatish mumkin.

AQSHda eksport jarayonlarini boshqaruvchi mutaxassislar uchun maxsus ta'lim dasturlari Trade Compliance Course (Savdo qoidalariga muvofiqlik bo'yicha kurslar) xalqaro savdo, eksport va import faoliyatidagi huquqiy, bojxona, lisenziyalash va xavfsizlik talablariga rioya etilishini ta'minlashni o'rgatadigan kasbiy o'quv kurslaridir. Ushbu kurslar eksportni boshqarish, eksport nazorati, sanksiyalarga rioya etish va xalqaro shartnomalarga muvofiq ishlash uchun zarur bilim va ko'nikmalarni beradi.

AQSHdagi (Trade Compliance Course) kursdagi ta'lim dasturlarida qamrab olinadigan asosiy mavzular quyidagilardan iborat:

1. Eksport nazorati (Export Control Regulations).
2. Sanksiyalar va embargolar.
3. Incoterms va xalqaro logistika.

⁴ <https://tradingeconomics.com/united-states/exports>



4. Eksport hujjatlari va klassifikatsiyasi.
5. Iqtisodiy va bojxona tavakkalchiliklarini boshqarish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda eksport faoliyatini takomillashtirish uchun quydagi taklif va tavsiyalarni keltirishimiz muhim:

- AQSHdagi EXIM Bank kabi milliy eksport-import bank yoki eksportni qo'llab-quvvatlovchi agentlik tashkil etilishi kerak. Ushbu institut eksport operatsiyalarini kreditlash, kafolatlash va sug'urta qilish orqali mahalliy kompaniyalarni tashqi bozorda himoya qiladi;

- AQSHda xizmatlar eksporti umumiy eksportning 40 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi. O'zbekistonda IT, ta'lim, turizm va moliyaviy xizmatlar sohasini raqamlashtirish va xalqaro sertifikatlash orqali xizmatlar eksportini takomillashtirish zarur;

- Eksportga mo'ljallangan startap va texnologik klasterlarni rivojlantirish kerak. AQSHdagi Kremniy vodiysi misolida, texnologik startaplarni eksportga yo'naltirish uchun inkubatorlar, venchur fondlar va universitetlar bilan hamkorlikda innovatsiya muhitini yaratish zarur;

- AQSHda har bir strategik tarmoq qishloq xo'jaligi, farmasevtika, aerokosmik sanoat, IT sohlari alohida eksport strategiyasiga ega. O'zbekistonda ham yo'nalishlarga qarab soha-soha asosida maqsadli eksport strategiyalari ishlab chiqilishi lozim;

- AQSHda eksportchi korxonalarga fiskal yengilliklar (soliqdan ozod etish, boj imtiyozlari) beriladi. O'zbekistonda ham eksport uchun xizmat qiluvchi korxonalarga subsidiyalar, soliq ta'tillari va kvotalar asosida imtiyozlar joriy qilish zarur.

Eksport faoliyati mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu faoliyatni samarali tashkil etish uchun bozor tahlili, mahsulot sifatini oshirish, logistika va transport tizimini rivojlantirish, huquqiy va bojxona masalalarini hal qilish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

O'zbekistonda eksport faoliyatini rivojlantirish uchun davlat tomonidan qator choralar ko'rilmogda, ammo hali ham bir qator muammolar mavjud. Ularni bartaraf etish orqali mamlakatning eksport salohiyatini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabr karori. "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. Прищепа А. И., Дацик О. В. Механизмы внешнеторгового финансирования экспортных операций в международной практике ведения торговли // Экономика и управление (Минск). – 2013. – №. 2. – С. 55-60.
3. Бохан Т. И. Развитие внешнеторгового финансирования в условиях кризисных изменений в экономике Республики Беларусь // Актуальные проблемы науки XXI века. – 2012. – №. 1. – С. 101-105.
4. Solow R. Robert M. Solow // 1990. – 1990. – С. 268-84.
5. Якушев Н. О. Роль экспортной деятельности в экономическом развитии регионов // Экономика и социум. – 2015. – №. 2-5 (15). – С. 310-314.
6. Kuzieva Nargiza "O'zbekistonda eksport operatsiyalarini soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalari" Arxiv nauchnykh issledovaniy 24 (2020).
7. <https://tradingeconomics.com/united-states/exports>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>